

6 – dars. KAMALAK

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda kamalak va uning asosiy ranglari haqida tushunchalarini kengaytirish;
- mehnatsevarlik, sabr-toqat va aniqlikni tarbiyalash;
- ranglarni idrok qilish va rang turlarini ajratish qobiliyatini rivojlantirish.

Kerakli materiallar:

darslik, gadjet, rangli qalamlar, kamalak ranglarini ko'rsatuvchi kartochkalar.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

2. Kirish qismi (5 minut)

O'qituvchi tomonidan savollar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinadi:

1. O'tgan darsda qanday she'rlar tinglagan edik?
2. Bu she'r sizda qanday taassurot qoldirdi?
3. Sizga kuzgi o'rmon mavzusida kompozitsiya yaratish yoqdimi?

3. Amaliy ish (25 minut)

O'qituvchi savollar beradi:

1. *Kamalak nima ekanligini kim biladi?*
2. *U qachon paydo bo'ladi?*

O'quvchilarga K. Pissarroning "Kamalak", D. Konsteblaning "Solsberi sobori manzarasi", A. Savrasovning "Kamalakli manzara" reproduksiyalari ko'rsatib, namoyish etiladi.

O'qituvchi: - *Keling siz bilan "Qanday rang?" o'yinini o'ynaymiz.*



K. Pissarro "Kamalak"



D. Konstebla "Solsberi sobori manzarasi"



A. Savrasov "Kamalakli manzara"

O'qituvchi kamalar ranglari tasvirlangan kartochkalarni ko'rsatadi, o'quvchilar esa ranglarni nomlarini aytadilar. Darslikning 14-betidagi kamalak chiziqlarini bo'yaydilar. Keyin o'quvchilar darslikning 15-betida berilgan tasvirga qarab kamalak ranglarini topadilar.

4. Darsni yakunlash. Refleksiya (5 minut)

O'quvchilardan har bir so'zning birinchi harfi kamalak ranglariga to'g'ri keladigan sh'er (akrostix) yoki she'riy topishmoqlar aytishlari orqali mavzu mustahkamlanadi.

Chiziladi ko'kda qalamksiz,
Har xil bo'yoq, rassomsiz. (kamalak)

Kutilayotgan natijalar:

- kamalak ranglari haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- mehnatsevarlik, sabr-toqat va aniqlikni rivojlantiradilar;
- ranglarni idrok qilish va rang turlarini ajratish qobiliyatini shakllantiradilar.